



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEKNIKA
UNIVERSITETI**

Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60611200 – Kiberxavfsizlik injiniringi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60611200 – Kiberxavfsizlik injiniringi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEKNIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: RAXIMOV MEXRIDDIRIN FAZLIDDINOVICH

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti**

falsafa doktori (PhD)



A'zo: DANISH ATHER

Amity University Tashkent

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260111
Xulosa raqami	925
Xulosa sanasi	14.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI" NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Kichik xalqa yo'li, Niyazov ko'chasi, 17-uy. Guvohnoma: MAS № 0000284, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Kiberxavfsizlik injiniringi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60611200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000284, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60611200 – Kiberxavfsizlik injiniringi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60611200 – Cybersecurity Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60611200 – Инжиниринг кибербезопасности
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	ingliz
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Kiberxavfsizlik muhandisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	120 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Kichik xalqa yo'li, Niyazov ko'chasi, 17-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy asoslar, rivojlantirish strategiyalari, sifatni ta'minlash tizimi hamda mehnat bozori monitoringiga oid materiallar kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Kiberxavfsizlik injiniringi" ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari shakllantirilgani, 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlantirish rejasi ishlab chiqilgani hamda manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlovchi tartiblar amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash mexanizmlari va mehnat bozori monitoringi tizimining yo'lga qo'yilgani, ularning ta'lim dasturini muntazam takomillashtirish jarayonida qo'llanilishi kuzatildi. Kiberxavfsizlik kabi tez rivojlanayotgan va doimiy yangilanib boruvchi sohada uzoq muddatli rivojlantirish rejasining mavjudligi hamda mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam o'rganish ta'lim dasturining dolzarbligi va zamonaviy talablar bilan uyg'unligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida ta'lim dasturining mazmuni, o'quv rejalari, kutilayotgan ta'lim natijalari va kompetensiyalari belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Kiberxavfsizlik injiniringi" ta'lim dasturi ish beruvchilar, soha mutaxassislari hamda professor-o'qituvchilarning ishtirokida belgilangan tartib asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan ta'lim natijalari va shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyalar malaka talablari, Davlat ta'lim standarti, kasbiy standartlar hamda ISO/IEC 27001 va IEEE kabi xalqaro standartlar talablariga muvofiq shakllantirilgani kuzatildi. Kiberxavfsizlik yo'nalishida

xalqaro axborot xavfsizligi standartlariga asoslangan yondashuvning qo'llanilishi ta'lim mazmunini amaliy kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'lash, bitiruvchilarning zamonaviy axborot xavfsizligi talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda xalqaro sertifikatlash talablariga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va kutilayotgan ta'lim natijalari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida o'quv jarayonini tashkil etish, malakaviy amaliyot hamda ta'lim natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Kiberxavfsizlik injiniringi" ta'lim dasturining o'quv reja va sillabuslari Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta'lim standartlari, kasbiy standartlar hamda xalqaro ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgani, o'quv jarayonining ta'lim dasturi maqsadlari va kutilayotgan ta'lim natijalari bilan o'zaro uyg'unligi ta'minlangani aniqlandi. Kiberxavfsizlik yo'nalishi bo'yicha amaliyot bazalarining mavjudligi hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratilgani kuzatildi. Real ish muhitiga yaqin laboratoriya mashg'ulotlari va amaliyot bazalaridan foydalanish talabalarda axborot tizimlarini himoya qilish, xavfsizlik tahdidlarini aniqlash va ularga qarshi samarali choralar ko'rish bo'yicha amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, ta'lim natijalarini baholashning shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etish bo'yicha belgilangan tartiblar amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida talabalar faoliyatini tashkil etish, qabul jarayonlari hamda talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida "Kiberxavfsizlik injiniringi" ta'lim dasturi bo'yicha qabul mezonlari va talablari aniq, o'lchanadigan hamda barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiq tarzda belgilangani, qabul jarayonining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etilgani aniqlandi. Mazkur yo'nalish uchun belgilangan 30 nafar talaba qabul kvotasining universitetning moddiy-texnik bazasi, laboratoriya imkoniyatlari va mavjud resurslari bilan o'zaro mutanosib ravishda shakllantirilgani kuzatildi. Qabul parametrlarini mavjud infratuzilma va laboratoriya ish o'rinlari imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifatini barqaror ta'minlash hamda amaliy

mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, talabalar harakatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar va ularni akademik hamda tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida "Kiberxavfsizlik injiniringi" ta'lim dasturi bo'yicha inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va boshqarish jarayonlari belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha asosiy shtatdagi xodimlar ulushiga qo'yilgan 70 foizlik me'yor to'liq ta'minlangani, ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega professor-o'qituvchilar ulushi esa belgilangan 35 foizlik mezondan yuqori darajada shakllantirilgani aniqlandi. Yangi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur kadrlar ehtiyoji miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha oldindan rejalashtirilgani hamda ta'lim jarayonini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash imkoniyatlari yaratilgani kuzatildi. Kiberxavfsizlik yo'nalishida professor-o'qituvchilarning amaliy ish tajribasi, zamonaviy axborot xavfsizligi texnologiyalarini bilishi va sohaviy professional sertifikatlariga ega bo'lishi ta'lim sifatini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, kadrlarni malaka oshirish, kasbiy rivojlantirish va rag'batlantirish mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida "Kiberxavfsizlik injiniringi" ta'lim dasturi bo'yicha moddiy-texnik baza, laboratoriya jihozlari, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli ta'lim muhitining holati belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida o'quv jarayonida foydalanilayotgan texnik vositalarning ish holatida ekani, laboratoriya jihozlari va amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan ish o'rinlari talabalar kontingentiga muvofiq tashkil etilgani aniqlandi. Jami 41 ta fan bo'yicha o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning elektron shaklda tayyorlangani hamda ularning talabalar va professor-o'qituvchilar uchun sutkaning istalgan vaqtida foydalanish imkoniyati yaratilgani kuzatildi. Elektron ta'lim resurslarining uzluksiz mavjudligi kiberxavfsizlik sohasida tez yangilanib borayotgan bilimlar va zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga tezkor tatbiq etish imkonini berishi qayd etildi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhiti va laboratoriya bazasining ta'lim dasturini

samarali amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashi tasdiqlandi. Umuman, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va raqamli ta'lim muhiti belgilangan mezonlar talablariga mosligi e'tirof etildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Kiberxavfsizlik sohasida bilimlar tez yangilanishini hisobga olib, elektron adabiyotlar fondini muntazam yangilash talab etiladi.
- ✓ Amaliyot bazalari va real muhitga yaqin laboratoriya stsenariylarini kengaytirish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ ISO/IEC 27001 va IEEE standartlari asosidagi mazmunni o'quv jarayoniga izchil tatbiq etish.
- ✓ Elektron o'quv adabiyotlar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Amaliyot bazalari va laboratoriya stsenariylarini kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning sohaviy sertifikatlarini olishini rag'batlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 60611200 – "Kiberxavfsizlik injiniringi" bakalavriat ta'lim dasturi (ta'lim tili – ingliz) bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi, kasbiy talablar hamda xalqaro yondashuvlar asosida ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgani va ta'lim natijalarini baholash tizimining amaldagi me'yoriy talablarga muvofiqligi kuzatildi. Professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli ilmiy va kasbiy salohiyatga ega ekani, moddiy-texnik baza,

laboratoriya infratuzilmasi, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini berishi qayd etildi. Tahlil davomida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani e'tirof etildi. Umuman, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos kelishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha muvofiq deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

